

**№ S/5 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/5 (3)-2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Кайпова Малика Дауытбай қизи</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....	9-13
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА .....	14-19
<i>Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li</i> HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR .....	20-25
<i>Мустафоев Жонибек Аралбоевич</i> “ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) .....	26-31
<i>Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li</i> O'ZBEKİSTON TARİXİY TARAQQIYOTNING ZAMONAVİY BOSQİCHIDA İJTİMOİY DAVLATNI SHAKLLANTIRİSHNING KONSTITUTSIYAVİY İSTİQBOLLARI .....	32-36
<i>Маҳмудон Эркин Асқаралиевич</i> АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРГОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....	37-45
<i>Назаров Комил Шамсуддинович</i> ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....	46-51
<i>Mamajonov Rahimjon Akramovich</i> O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....	52-58

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Остонокулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жўма ўғли</i> ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАГЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ .....	59-69
<i>Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN .....	70-75
<i>Хамраев Джамишид Панжиевич</i> ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛANIШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ .....	76-81
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛАНТИРИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	82-91
<i>Axmedova Nazokat Zikirillo qizi</i> KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI .....	92-97

<i>Саатмуротов Шоҳруҳ</i>	
МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i>	
АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121

<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i>	
DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAQATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129

<i>Қодиров Азизжон Анварович</i>	
«COVID-19» ИНҚИРОЗИННИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

## **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i>	
JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145

<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G'OVYALARI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA .....	146-151

<i>Орзиеев Иқболжон</i>	
АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALAR LARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

## **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israel Mukaddas Irgashevna</i>	
BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDA O'RGANISH USULLARI .....	166-172

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i>	
A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178

<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i>	
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184

<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i>	
O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189

<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i>	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ХУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abdusalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277

---

<i>Kuchkarova Arofathon</i>	
THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLEARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i>	
KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i>	
XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i>	
PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI .....	316-322

**Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li,**  
Xorazm Ma'mun akademiyasi tadqiqotchisi  
Email: [khurmatbekaminov@gmail.com](mailto:khurmatbekaminov@gmail.com)

## **HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada keyingi yillarda respublikamizda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun yaratilgan huquqiy asoslar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyunda qabul qilingan "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-91-sonli farmoni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Prezident farmoni, qarorlar, hunarmandchilik, kasanachilik, soliq imtiyozlari, "Hunarmand" uyushmasi, milliy mahsulot.

**Aminov Khurmatbek Bakhram ugli,**  
Researcher of Khorezm Mamun Academy

## **NEW OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRAFTS**

**Abstract.** This article will focus on the legal framework created in subsequent years for the development of crafts in the republic, in particular on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-91 dated June 12, 2023 "On measures to attract the population to craft and create favourable conditions for the development of craft activities."

**Key words:** Presidential decree, decisions, crafts, household, tax benefits, "Hunarmand" association, national product.

**Аминов Хурматбек Бахрам угли,**  
исследователь Хорезмской Академии Маъмуна

## **НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЕМЕСЕЛ**

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о правовых основах, созданных в последующие годы для развития ремесел в республике, в частности о указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-91 от 12 июня 2023 года "О мерах по привлечению населения к ремеслу и созданию благоприятных условий для развития ремесленной деятельности".

**Ключевые слова:** Указ Президента, решения, ремесла, хозяйство, налоговые льготы, объединение «Хунарманд», национальный продукт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N03>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni, an'anaviy hunarlarni tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Boshqa maqolamizda 2017-yilgacha yaratilgan huquqiy asoslar hamda ularning hunarmandchilik rivojidagi ahamiyati xususida yozganimiz bois, shuningdek maqola hajmini hisobga olib, ushbu maqolada 2017-yildan keyin

hunarmandchilik sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar va ularda yaratilgan keng imkoniyatlar Xorazm viloyati misolida oshib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqlolada Respublika oliy hokimiyat organlari tomidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar [www.lex.uz](http://www.lex.uz) portalidan olinib, tahlil qilindi. Davriy nashrlar, dala yozuvlari, so'rovnomalar va internet ma'lumotlari qayta ishlandi. Xolislik, qiyoslash, tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Respublikamizda 1991-2016-yillarda sohaga doir 4 ta normativ hujjat (3 ta farmon, 1 ta Vazirlar Mahkamasasi qarori) qabul qilingan bo'lsa, 2017-2023-yillarda 15 ta hujjat (3 ta farmon, 3 ta Prezident qarori, 6 ta Vazirlar Mahkamasasi qarori va boshqalar) qabul qilindi. Bu keyingi yillarda hunarmandchilik sohasiga qaratilayotgan ulkan e'tibor va davlat g'amxo'rligining yaqqol isbotidir. Har bitta hujjat yuz minglab fuqarolarning o'zlarini ish bilan ta'minlashga, hayotini yaxshilashga, kelajakka umid bilan boqishiga zamin yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida hunarmandchilik asosan milliy qadriyat, xorijiy sayyoohlarni jalgan qiluvchi vosita sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda bevosita iqtisodiy negiz, insonlar turmush farovonligini oshiruvchi soha sifatida qaralmoqda.

Ma'lumki, milliy ana'analar, jumladan hunarmandchilik sirlari ko'proq tarixiy shaharlarimizda saqlanib qolgan. 2017-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 687-sun qarori qabul qilindi. Bu qaror nafaqat Farg'ona vodiysi balki respublikamizning boshqa tarixiy shaharlarida ham hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga turtki bo'ldi. Xiva shahri ham nafaqat turizm, balki endilikda hunarmandchilik markaziga ham aylandi. Ichon qal'a ko'chalari bo'yab - cho'girmado'zlar, milliy libos tayyorlovchilar, gilamdo'zlar, zargarlar, misgarlar, kandakorlar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-sunli farmoni qabul qilinishi sohada yangi imkoniyatlar paydo qildi [8]. Farmon bilan hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar va oilalar, ayniqsa yangidan o'z faoliyatini boshlagan hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, "Ustashogird" maktablari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, va shu asosda yangi ish o'rinnari tashkil etish; hunarmandchilik subyektlariga davlat ro'yxatidan o'tishda ko'maklashish, ularga yer maydonlari va binolar ajratish, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, ularni asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo va materiallar bilan uzlusiz ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar berish; xalq hunarmandchiligi va ijodiy an'analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste'molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmasini shakllantirish; hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni rag'batlantirish, xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma va yarmarkalarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini taqdimot qilishga ko'maklashish masalalari belgilandi [8].

"Hunarmand" uyushmasining a'zolari 2017-yilning 1-dekabridan boshlab hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etildi. 2018-

2019-yillarda O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yig'ma dasturi, 2018-2019-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishning manzilli dasturlari va hunarmandchilik obyektlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Yig'ma dasturga ko'ra, Xorazm viloyatida qiymati 10984,4 mln. so'm bo'lgan 185 ta loyihani amalga oshirish, unda yillik ishlab chiqarish quvvati 18786,7 mln. so'm bo'lishi, moliyalashtirish manbalari va 450 nafar ish o'rni yaratish belgilangan edi. "Hunarmand" uyushmasi Xorazm viloyati boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra reja oshig'i bilan bajarilgan [8].

Manzilli chora-tadbirlar rejasi tahlil qilinganda Xorazm viloyatining Xiva, Urganch tumanlari va Urganch shahrida boshqa tumanlarga nisbatan hunarmandlar soni va hunarmandchilik turlari ko'proq ekani, Qo'shko'pir, Bog'ot, Yangiariq, Yangibozor kabi tumanlarda kamligini kuzatish mumkin.

2017-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 1003-sonli qarori ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur qaror bilan O'zbekiston amaliy san'at muzeyi negizida O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Muzeyni tashkil etishdan asosiy maqsad – mustaqillik yillarda tiklangan O'zbekistonning ko'hna va boy milliy hunarmandchilik tarixi, bugungi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos maktablarining an'analari hamda amaliy san'at va hunarmandchilik asarlarini asrash, xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, ilmiy o'rganish va kelajak avlodga yetkazishdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining "Xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov va yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlari olib chiqilishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori hunarmandlarni xorijga chiqish ishtiyoqlarini yanada oshirdi va hozirda har yili yuzlab hunarmandlar o'nlab xalqaro festivallarda erkin qatnashib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5841-sonli farmoni bilan har ikki yilda bir marta sentabr oyida Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish asoslari belgilab berildi. Hozirgi vaqtida hunarmandchilik san'ati xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Mamlakatimizda har yili mazkur yo'nalishda yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko'rgazmalari va boshqa tadbirlar o'tkazilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Keyingi yillarda xalqaro festivallar, ko'rgazmalar o'tkazish hunarmandlar faoliyatida muhim o'rin tutmoqda. Shahrисабзда maqом, Termizda baxshichilik san'atiga bag'ishlangan xalqaro festivallar, Buxoro shahrida "Ipak va ziravorlar", Marg'ilonda "Atlas bayrami" anjumanlari muntazam o'tkazib kelinayotgani, ularda dunyoning ko'plab davlatlaridan madaniyat va san'at namoyandalari, bu yo'nalishda o'zining ilmiy ishlari, amaliy faoliyati bilan tanilgan olimlar va mutaxassislar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir. 2019-yil 10-15-sentabr kunlari Qo'qon shahrida YUNESKO shafeligidagi birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali o'tkazilgani, Jahon hunarmandlar tashkiloti tomonidan ushbu shaharga "Jahon hunarmandlari shahri" maqomi berilgani o'zbek xalq amaliy san'atining xalqaro miqyosdagi

yuksak e'tirofi bo'ldi. Jahon xalq amaliy san'atini, uning ajralmas qismi bo'lgan o'zbek milliy hunarmandchiligini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ana shunday ezgu ishlar ushbu beba ho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo'ldagi sa'y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Hunarmandchilik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida deyarli har yili yangi qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-sonli, 2021-yil 30-dekabrdagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-sonli va 2022-yil 25-iyuldagagi "Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-331-sonli qarorlarini keltirish mumkin.

PQ-4539-son qarorga asosan, hududlar hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha ixtisoslashtirildi va hunarmandchilik mahsulotlarini chet el bozorlarida namoyish etish va sotish uchun ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini biriktirildi. Xorijdagi diplomatik vakolatxonalari orqali mazkur vakolatxonalar joylashgan va boshqa yirik shaharlarda hunarmandlarga o'z mahsulotlarini namoyish etish va sotish uchun milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati mahsulotlarini keng targ'ib qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi "savdo uylari" va milliy hunarmandchilik mahsulotlari do'konlari tashkil etildi. "Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi" va "Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri" joriy etildi. Milliy katalog va reyestrga kiritilgan hunarmandlarga alohida soliq imtiyozlari berildi. Banklarga hunarmandlar uchun imtiyozli shartlarda kreditlar ajratish belgilandi [4].

PQ-77-sonli qarorda Milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 230 ming nafarga yetgani; hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan 340 nafar ustalar ushbu katalogdan o'rinni olgani, shuningdek, 1,5 mingga yaqin hunarmandlar turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shayotganligi; shu bilan birga, mahallabay ishlash orqali foydalanimayotgan imkoniyatlarni to'la ishga solish, hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish tizimini yanada kengaytirish, hunarmandchilik mahsulotlari uchun yangi bozorlarni topish borasida qo'shimcha choralar ko'rish zarurligi va aholini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, "usta-shogird" an'analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida ushbu qaror qabul qilingan [3].

Qarorga asosan 2022-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan mablag'larning 500 milliard so'mi hunarmandchilik loyihibalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida "oilakredit.uz" elektron platformasida hunarmandlarni onlayn navbatga qo'yish va ularning loyihibalarini imtiyozli kreditlash yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy soliq stavkasi yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida belgilangan. 2022-yilda hunarmandchilikni rivojlantirish

bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Har yili "O'zekspomarkaz" pavilonlarida "Craft fair Uzbekistan" xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari va texnologiyalari yarmarkasini tashkil etilmoqda. PQ-331-sonli qarorga asosan birgina Xorazm viloyatida 1.32 ga maydonda 33 ta mahallani birlashtirgan 11 ta mikromarkazlar tashkil etildi [3].

Sohadagi muhim hujjatlardan biri yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish choratdbirlari to'g'risida"gi PF-91-son farmoni bo'ldi. Farmonni qabul qilishdan maqsad uning kirish qismida mamlakatimizda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan hunarmandlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ularni zarur xomashyo va moliyaviy resurslar bilan uzlusiz ta'minlash, hunarmandchilik mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun infratuzilma yaratish va bozorlarni kengaytirish hamda aholini hunarmandchilikka keng jalb etish deb izohlangan. 1-ilovada 43 ta hunarmandchilik faoliyatining yo'naliishlari ro'yxati va hunarmandchilik turlari belgilangan [1].

Farmonning 2-bandи 2-xatboshisiga asosan tovar belgilarini milliy ro'yxatdan o'tkazish bepul amalga oshiriladi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi etib qayta nomlandi.

2-ilovada Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan subsidiyalar ro'yxati toifalari va miqdori tasdiqlangan.

8-bandga asosan 2023-yil 1-iyuldan boshlab hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari sifatida jo'natish xarajatlarining 50 foizi, biroq mahsulot eksport qiymatining (jo'natish xarajatlarisiz) 50 foizidan ortiq bo'limgan qismi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab berilishi belgilandi.

Hujjatning 11-bandи bilan [3-ilovaga](#) muvofiq 2023-2024-yillarda hunarmandchilik yo'naliishlari bo'yicha o'tkaziladigan ko'rgazmalar, festivallar va xalqaro konferensiyalar ro'yxati tasdiqlangan. Unga ko'ra, har bir viloyatda kamida 2 ta tadbir rejalashtirilgan. Xususan Xorazm viloyati Xiva shahrida 2023-yil avgutsda "Gilamlarga bitilgan tarix" gilamchilik ko'rgazmani, 2024-yil aprelda Yangiariq kulolchilik markazida "Kulollar sayli" milliy kulolchilik mahsulotlari ko'rgazma savdosini tashkil etish belgilangan [1].

14-bandda [4-ilovaga](#) muvofiq 2023-2024-yillarda hududlarda hunarmandchilik yo'naliishlarini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Unga ko'ra, 24-banddan iborat bir qator muhim topshiriqlar belgilangan. Jumladan, ijaraga olishda yengilliklar yaratish, hunarmandchilikning yo'qolib ketayotgan turlarini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish bo'yicha aniq choralarini belgilash, Xalqaro hunarmandchilik, badiiy sanoat va dizayn institutini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, hunarmandchilik klasterini tashkil etish, "Hunarmand" uyushmasiga ssuda ajratish, "Hunarmandchilik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish kabi chora-tadbirlar belgilangan [1].

Madaniy meros agentligi buyurtmasi bo'yicha davlat muzeylari ehtiyojidan kelib chiqib, hunarmandlarning milliy qadriyatlarni aks ettirgan mualliflik asarlarini xarid qilish (15-band) juda ahamiyatli hisoblanadi. Chinki mustaqillik yillarida muzey fondlariga an'anaviy hunarmandchilik buyumlarini sotib olishga deyarli e'tibor qaratilmagandi. Mazkur band ijrosi

xalq ustalari, sulolaviy ustalarning nufuzini oshirish bilan birga, ularda san'at darajasidagi nafis buyumlar ishlashga rag'bat uyg'otadi.

**Xulosa.** Sohaning rivoji uchun mustahkam huquqiy asosning yaratilishi respublikamizda hunarmandlar sonining ko'payishiga, aholini ish bilan ta'minlash darajasini yanada oshishiga, muzey xazinalarining boyishiga, turizmning kengayishiga va yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaratilgan huquqiy asoslarning amalda ishlashi uchun mas'ul organlar ularning targ'ibotiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Joylarda soha mutaxassislari bilan hamkorlikda o'quv seminarlar treninglar tashkil etish yosh hunarmandlar uchun juda foydali bo'ladi. Shu bilan birga soha rivojini ilmiy asoslarini ishlab chiqish tavsiya qilinadi.

### Адабиётлар / Литература / References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-91, Qabul qilingan sana 12.06.2023, Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-331, Qabul qilingan sana 25.07.2022, Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-77, Qabul qilingan sana 30.12.2021, Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-4539, Qabul qilingan sana 28.11.2019, Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-5841, Qabul qilingan sana 03.10.2019, Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida
6. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining qarori, per. № МЮ 3004, Qabul qilingan sana 02.05.2018, Xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov va yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlari olib chiqilishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №1003, Qabul qilingan sana 20.12.2017 O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-5242, Qabul qilingan sana 17.11.2017, Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-1741, Qabul qilingan sana 31.03.1997, Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/5 (3)-2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).